

Ta'lim Jarayonida O'quv- Biluv Faoliyatini Tashkil Etish

Usmonova Dilobar¹

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida o'quv- biluv faoliyatini tashkil etish va o'quvchilarda bilim olishga nisbatan motivni shakllantirish borasida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'quv-bilish faoliyati, ta'lim jarayoni, aqliy mehnat, muloqot, bilimlar, anglash, tushunish, idrok etish.

O'quv- bilish faoliyati o'quvchilar tomonidan o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish bilan birga ichki ruhiy kechinmalar tarzida yuz beradi. O'z- o'zidan ma'lumki, kishilarning ta'lim mobaynida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosobotlari ularning ruhiy faoliyatlari rivojlanishiga olib keladi.

Shaxsning rivojlanishida o'quv aqliy mehnat ijodiyot bilan birga muloqot faoliyati ham alohida o'rin tutadi. Muloqot bilimlarni o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratadi, bilish jarayoni faoliyatidir. Muloqot o'qituvchining o'quvchilar bilan o'quv jarayoni tashkil qilishning bir shakli hisoblanadi. Muloqotning amaliyotda keng qo'llanilgan turli shakllari mavjud. Bulardan eng mukammali bu og'zaki muloqotdir. Og'zaki muloqot yangi so'zlar aytishuvi orqali amalga oshiriladi turli bir necha ming yillik tarixga ega.

Og'zaki muloqot o'qituvchining guruh sinf auditoriya bilan olib boradigan muloqoti, radio orqali o'tkaziladigan, televideniye, komp'yuter orqali o'tkaziladigan muloqot turlariga bo'linadi. Og'zaki muloqot o'quvchilarda bilim, iqtidor, ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Albatta, hamma o'quvchilar ham ichki ruhiy qiyinchiliklarini og'zaki muloqot paytida ochiq aytishga botinavermaydilar. Shuning uchun ham o'quv- tarbiya jarayonida yozma muloqot keng tarqalgan. Yozma muloqot o'quvchining yozma nutqini yanada rivojlantiradi, keng ma'noni qisqa so'zlar bilan ifodalash ko'nikmasini, ichki kechirmalarini baralla yoritish imkonini beradi. Yozma muloqot o'quvchilar husnixatini va nihoyat o'quvchilar bilimini baholashda rasmana rasmiy hujjat funksiyasini beradi.

Bilish faoliyatini kishilarning aqliy qobilyati bilan uzviy bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy qobilyatlarini o'stirish muammosi pedagogikasining eng dolzarb muammolaridan biridir. Zero, bugungi kundagi taraqqiyot ham bizdan bilimli, qobilyatli tadbirkor, tashabbuskor tadbirlarni yetishtirishni talab etmoqda.

Shunday kadrlargina vatanimiz taraqqiyotini yuqori darajasiga ko'tarish mumkin. Qobilyat kishining induval imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bilish bu mutolaa natijasidir, qobilyat ega kishi psexologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobilyat bilim olish uchun zaruriy shart- sharoit bo'lib, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilimni olish mahsulidir. Qobilyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Qobilyatda ko'nikma ro'yobga chiqadi. Demak, qobilyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi. Har qanday qobilyat- shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatlariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Qadriyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Qobilyat turli rivojlanish darajasida bo'lgan payt ham bilish mumkin. Ilmiy abetransiyalash qobilyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi: reproduktiv aks ettirish darajasi. O'z qobilyat rivojlanishining birinchi darajasida turgan kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi, faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali oshiradi. Ikkinchi darajada turgan kishi esa yangilik yaratishga qodir bo'ladi.

¹ Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM, Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi



Yuqorida aytib o'tilgan, qobiliyat darajalari ham qandaydir o'zgaras va qotib qolgan narsalar emas. Bola qobilyati ta'lim- tarbiya natijasida yuqori darajaga ko'tariladi, aqliy qobilyatlari o'sadi, rivojlanadi. Kishi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma hosil qilishi jarayonida, faoliyat jarayonida bir darajadan ikkinchi darajaga o'tib turadigan qobiliyat shaxsning shakllanish va rivojlanish natijasidir. Shuning bilan birga tabiiy zehn deb ham yuritilgan.

Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi birinchidan moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijasining sifatiga qarab tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etishi orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan; uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarning umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilishni ta'minlansin.

O'quvchilar amalga oshiradigan ta'lim jarayonini ikki tomonlama tasavvur etish mumkin. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi axborot vositasi sifatida reproduktiv ta'lim shaklini amalga oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarning dars paytida va darsdan tashqarida amalga oshiriladigan o'quv ishlari tarzida yuz beradi.

Ta'lim jarayoni bevosita o'qituvchining rahbarligida amalga oshirilganida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taklif etilgan oquv vazifalarini hal etish tadbirlarini bajaradilar, o'qituvchi rahbarligida o'quv faoliyati natijalarini tahlil etadilar. Ta'lim jarayonida o'qituvchining rahbarlik, ta'lim berish faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari chambarchas bog'lanib ketadi. Agar o'qituvchi o'quvchilar o'quv harakatlarini nazorat qilish bilan birga o'z faoliyatini ham to'g'rilab borsa, o'quvchilar ham o'qituvchining ta'siri ostida o'z harakatlarini to'g'rilab borishadi. Faqat o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari mana shunday mushtarak, uyag'unlashgandagina ta'lim jarayoni yakdil, yaxlit, bir butunligicha rivojlanadi. Aksincha, agar o'qituvchi butun vujudi bilan faoliyat ko'rsatsa- yu, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtira olmasa ta'lim jarayonining vazifalari amalga oshmay qoladi

Pedagogika tarixidan ma'lumki, eski maktablarda, shuningdek Yevropada XIV-XV asrgacha sxolastik ta'lim tizimi hukmron bo'lib, o'qituvchining so'zi o'quvchi uchun axborot olishning yagona manbai bo'lgan.

XVII asrdayoq Yan Amos Komenskiy sxolastik ta'limning samarasi juda past ekanligini isbotlagan edi. Sxolastik ta'lim o'rnini ko'rsatmali o'qitish usuli egalladi: "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal" lekin ko'p o'tmay ko'rsatmali ta'lim berish usuli ham optimal (samarali) emasligi ma'lum bo'ldi va bilim olishda o'quvchi faoliyatini tashkil etish usuliga o'tildi. "Ish harakat bajarilayotganini yuz marta ko'rgandan uni bir marta bajargan yaxshi", - degan xulosaga kelindi². Faoliyatli yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma- xil usullarini vujudga keltirildi. Bilim olish uchun motiv hosil qilish bilan birga, o'quvchi o'quv materialini o'zlashtirishga imkon yaratadigan o'quv- biluv harakatlarini ham bajarishi zarur, ya'ni oquvchining o'zi faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak.

O'quvchi o'quv- biluv faoliyatining bir necha tiplarini ifodalash mumkin.

1. Agar ta'lim maqsadi birinchi darajadan yuqori bo'lmasa o'qish reproduktiv ta'limda o'quvchining faoliyati muallimning so'zlarini diqqat bilan tinglash yoki darslik bilan ishlashdan yoki o'rganilayotgan ob'ektlar, hodisalarni kuzatishdan ko'rsatmaga binoan biror amaliy harakatni tajriba tariqasida bajarishdan iborat bo'ladi. Shu ish- harakatni barcha o'quv elementlarini bilib olish uchun bir necha marta bajarishni yuqoriroq koeffitsent (K_1) darajasida o'zlashtirishga olib keladi.

² A. Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To'xliyev, N. Xotamov. Pedagogika tarixi. T. Sharq, 2000, 236 b.



O'zlashtirish koeffitsenti 0,7(K_1 0,7) bo'lsa ya'ni o'quvchi vazifani 70 foizini to'g'ri bajarsa, ta'limning o'quv elementlarini o'zlashtirish bo'yicha keyingi faoliyati K_1 darajasidan yuqorigacha boradi.

2. Ta'lim maqsadi a-II (o'zlashtirish ikkinchi darajasida) bo'lsa o'quvchining o'quv- biluv faoliyati yuqoriroq shaklda bo'lishi, ya'ni faoliyat ish- harakatning asosiy algoritmlarini ongli va mustahkam esda qoldirishni ta'minlash lozim. Bu darajada o'quvchi o'quv materialini qayta ifodalay olishi, tanqidiy mushohada yuritishi, vazifani bajarish variantlarini tanlay bilishi kerak.

Ta'limning ikkinchi darajasida tugallangan hisoblanadi.

3. O'zlashtirishning 3- darajasi (a-III) ga erishish uchun o'quvchining o'quv- biluv faoliyati tadqiqiy, evristik shaklda tashkil etiladi. Buning uchun o'quvchi o'quv materialini avval 1 va so'ngra 2- darajada o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu darajada o'quvchidan o'quv- biluv faoliyatini izlanish harakatlari qilishini talab etadigan muammosi o'qitish bajarish kabi didaktik vazifalarini bajarish o'rinli bo'ladi.

4. Nihoyat ta'lim maqsadi 4- darajada o'zlashtirishni ko'zlaganda masalan muammoli vazifalarini qo'ya bilish individual va jamoa bo'lib tadqiqot ishlarini bajarish kabi shaklda tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning birgalikdagi yoki o'quvchilarning alohida mustaqil o'quv faoliyatlarini bilish jarayonining asosini tashkil etadi. Bulardan tashqari bilimlarni o'zlashtirishning ichki jarayonlari ham mavjuddir. Shu nuqtai nazardan o'zlashtirish jarayoning psixologik tavsifini quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Bilish jarayoni.

Qabul etish eshitish	tushunish	anglash	Umumlashtirish	mustahkamlash	qo'llash
-------------------------	-----------	---------	----------------	---------------	----------

Qabul etish- o'quvchi sezgi organlariga ta'sir etadigan hodisalar va jarayonlarning inson tafakkurida aks etishidir. Bu jarayonda pedagog faoliyati o'quvchilarda safarbarlik holatini yuzaga keltirish, yangi materialni o'zlashtirishda o'quvchilar kuch- g'ayratlarini faollashtirishlari lozim.

Tushunish- ayrim jarayonlar, hodisalar orasidagi bog'liqliklar, voqea va hodisalarning kelib chiqish sabablarini, matn mazmunining mohiyatini ochishdan iborat.

Anglash- tushunilgan hodisa yanada boyitiladi, aniqlashtiriladi, o'quvchida o'ziga ishonch ortadi.

Umumlashtirish- bilim, iqtidor va ko'nikmalar oddiy elementlar bo'lakchalaridan yig'ilib murakkab bilimlarga, murakkab ko'nikma va murakkab malakaga aylana boshlabdi. Umumlashgan bilimlar mutaxassisga yangi sohani egallashda nazariy bilimlarni epchillik bilan qo'llash imkonini beradi.

Mustahkamlash- o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtiradi, ularni yangi vaziyatga tadbiq etish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'zlashtirilgan, umumlashtirilgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar biron-bir muayyan hayotiy sharoitlarda qo'llanilishi kerak. O'quvchida faol harakat, bilim va ko'nikmalar orttirish ishtiyoqi uyg'onsagina ta'lim jarayoni samarali kechadi³.

O'quv faoliyatini bunday tashkil qilish uchun uning barcha usullari- og'zaki, ko'rgazmali va amaliy, reproduktiv, qidiruv, induktiv va deduktiv, shuningdek, mustaqil ish usullaridan foydalaniladi. Bu jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni, shakli va amalga oshirish usullariga munosabatda ijobiy hissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muhimdir.

Dars jarayoni samarali o'tishda motivlar hosil qilish muhim o'rin tutadi. Chunki, qiziqish va aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi. Ta'limga faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsiyon

³ M.X.To'xtaxo'jayeva va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. Toshkent – 2005.



muammosi vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan fanning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus vazifalarini qo'yilishidir. Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach, dars davomida o'quvchilarni qiziqishlarini saqlanib turgan holda o'rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda motivni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'quv- biluv faoliyatini oshirishda ham motivlarga ko'proq e'tibor bersa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quv faoliyatiga qiziqtirishning yana bir manbai- uning mazmunidir, bu mazmun kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun ta'lim prinsiplari qator talablarga javob berishi lozim, ularga birinchi navbatta yangilik va dolzarblik vaziyatlarini yaratuvchilik mazmunini fan hamda texnikaning eng muhim kashfiyotlarini zamonaviy madaniyat, san'at, adabiyot yutuqlariga, ijtimoiy- siyosiy va xalqaro hayot hodisalariga yaqinlashishni kiritish mumkin. Ana shundagina o'quvchilar darsda o'rganilayotgan masalalarning muhimligini erkin va chuqur his qiladilar va shunga asosan unga hamma qiziqish bilan yondoshadilar.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirishning muhim usuli sifatida bilishga doir o'yinlarni aytish mumkin. U o'quv jarayonida o'yin vaziyatini yaratadi. O'yin o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi vosita sifatida allaqachon tan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.
2. Safarova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiq etish yo'llari. T.: Fan. 2005.
3. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.
4. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.
5. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
6. A. Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To'xliyev, N. Xotamov. Pedagogika tarixi. T. Sharq, 2000, 236 b.
7. M.X.To'xtaxo'jayeva, S.Ashirboyev, J.Hasanboyev, S.Nishonova, S.Madiyarova, A.Qoldibekova, M.Usmonboyeva, N.Nishonova. Pedagogika nazariyasi. Toshkent – 2005.

